

**SHOIRA SHE'RIYATINING MAVZULAR OLAMI*****Raximova Iroda Shomurotovna****Osiyo xalqaro universiteti**O'zbek tili va adabiyoti, 1-kurs magistranti****Ilmiy rahbar: f.f.d. prof. Ahmedova Shoira Ne'matovna***

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada buxorolik shoira Laylo Sharipova ijodining yetakchi mavzular tizimi bir qator she'rlari asosida tahlil qilingan. Shoiraning “Onam – Vatan”, “Ona”, “O'zbek tilim!”, “Ona tilimga”, “Ustozlarga”, “Bobodehqonim”, “Bu shunday dunyoki”, “Yig'lama!”, “Iqror”, “Iltijo” kabi she'rlari orqali uning ijodida Vatan, ona, millat va til, ustoz, mehnat, ruhiy iztirob, falsafiy mushohada kabi mavzularning o'zaro uyg'unligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: shoira, lirika, ilohiylik, onalik, Vatan, ona til, ma'naviyat, xalqona ruh, hijron, tabiat obrazlari, poetika, milliy qadriyatlar, ruhiy mushohada.

KIRISH. Zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos lirik ohangi, samimiy ruhiyati, xalqona ifodasi bilan ajralib turuvchi shoiralardan biri — Laylo Sharipovadir. Uning she'rlari inson ruhining eng nozik qatlamlarini aks ettirishi, tabiat obrazlari orqali kechinmalarni jonlantirishi, ona, Vatan, til, ustoz kabi muqaddas tushunchalarga sidqidildan munosabat bildirilishi bilan ajralib turadi. L.Sharipova lirikasining mavzular olami keng va rang-barang bo'lib, u har bir she'rida nafaqat poetik obraz yaratadi, balki ma'naviy teranlik va falsafiy chuqurlikka ham erishadi.

ASOSIY QISM. Laylo Sharipova ijodining eng ta'sirli qatlamlaridan biri bu Vatan mavzusi bo'lib, “Onam – Vatan” she'rida bu tushuncha ona timsolida gavdalanadi. Shoira Vatan tuprog'ini mehr, minnatdorlik, ona bag'rining issig'i bilan birlashtiradi. Tabiat manzaralari — cho'l, bug'doyzorlar, daraxtzorlar — Vatanning ruhiy qiyofasini yaratadi. She'rda ushbu buyuk tushuncha tabib (dardga malham), hofiz (ruhni asrovchi), bunyodkor (yaratuvchi), ona (bag'ri keng,



mehribon) sifatida talqin qiladi. Bu she'r shoiraning ijodidagi eng yuksak ma'naviy «poydevor» mavzusini belgilaydi.

“Ona” she'rida shoira onalikning buyuk mas'uliyatini, mehrning beqiyosligini badiiy mahorat bilan yoritadi. Onaning farzand uchun qilgan qurbonligi, ayollik iztiroblari, hayot oldidagi matonati shoiraning lirik qahramoni timsolida jonlanadi. Shoira ijodida onalik tasviri mehrning pok shakli, hayotning tayanchi, farzandning ruhiy boshpanasi sifatida har bir she'rdan namoyon bo'ladi.

“Iltijo” she'rida inson va o'lim o'rtasidagi ruhiy dialog, Yaratganga iltijo, taqdirning noaniq yo'llarida najot izlash obrazlari markaziy o'rin tutadi. Shoira o'limdan qo'rqish emas, hayotni qadrlash va uni davom ettirish haqidagi iztirobnii ifodalaydi. “Iltijo”da farzandlar taqdiri uchun xavotir, hayotdan erta ketmaslikka intilish — insoniyatning umumiy ruhiy holatini eslatadi.

Sen meni bunchalar erta chorlama,
Uch gulni kimlarga tashlab ketaman.
Ularga soyabon borligin bilsam,
Allohim, seningsiz yerda netaman.

“O'zbek tilim!” va “Ona tilimga” she'rlari Sharipovanning milliy ruhga sodiqligini ko'rsatadi. U tilni tarix, urf-odatlar, buyuk ajdodlar, diniy-ma'rifiy meros bilan bog'laydi. Til — shoiraning tasvirida ummon, doston, meros, xalqning imoni sifatida o'rin oladi.

Erk tilisan, Er To'ngaga xos,
Sen Navoiy, Boburdan meros,
Sen Qodiriy, Fitratga hamroz,
O'zbek tilim, imonsan o'zing!

Bu she'rlar shoiraning millat va til birligini chuqur his etishini ko'rsatadi.

“Ustozlarga!” she'rida shoiraning ma'rifatparvar dunyoqarashi yorqin aks etadi. Ustoz — insonni nurga yetaklovchi, jaholatni yenguvchi, jamiyatni komillik sari boshlovchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Ko'kni quchdi bilimli inson,
Dunyo aro topdi shavkat-shon.



Bilim axir bepoyon imkon,

Ulug'lardan ulug'dir Ustoz.

Bu she'r ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga bo'lgan chuqur hurmatni aks ettiradi.

Laylo Sharipova ijodida , ayniqsa, hijron, dard va ruhiy iztirobning lirik talqini betakror ifodalar orqali beriladi. “Yig'lama!” she'rida tabiat manzaralari — xazon, sarg'aygan maysa, shivirlagan daraxt — ruhiy iztirobning ramziga aylanadi. Lekin shoira dard ustidan kulishga, iztirobni yengishga chorlaydi — bu uning ijodidagi ichki iroda belgisi.

Oyog'im ostida yig'laydi xazon,

G'unchalar xandasi tinibdi butkul.

Ketaman, tugamas bu zolim hijron,

Yuragim, yig'lama, dard ustidan kul!

XULOSA. Laylo Sharipova she'riyati mavzularning rang-barangligi va badiiy uyg'unligi bilan ajralib turadi. Uning ijodiy olami, avvalo, Vatan, ona, ona til, ustoz, inson ruhining ichki kechinmalari bilan boydir. Shoira tabiat obrazlari, samimiy ohang, xalqona tasvirlar va falsafiy mushohadalar orqali o'ziga xos poetik makon yaratadi.

Laylo Sharipova zamonaviy o'zbek adabiyotida milliy ruh, ma'naviy teranlik va lirizmni uyg'un holda namoyish etuvchi yorqin shoiralardan biri bo'lib qolishiga ishonamiz.